



WAYS OF RATIONAL USE OF NATURAL RESOURCES OF THE NUROTA RIDGE

Bekzod Khakimov

Jizzakh State Pedagogical University

ABOUT ARTICLE

Key words: Nurota Ridge, Ukhum and Majurum Streams, Hayotboshi Peak, natural resource, degradation, Gordara Stream.

Abstract: In this article, the natural resources of the Nurota ridge and the possibilities of their use, as well as the issues of protection, are studied and analyzed.

Received:

Accepted:

Published:

NUROTA TIZMASI TABIIY RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH YO‘LLARI

Bekzod Xakimov

Jizzax davlat pedagogika universiteti

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Nurota tizmasi, Uxum va Majurum soylar, Hayotboshi cho‘qqisi, tabiiy resurs, degradatsiya, Go‘rdara soyi.

Annotatsiya: Maskur maqolada Nurota tizmasi tabiiy resurslari va ulardan foydalanish imkoniyatlari hamda muhofaza qilish masalalari o‘rganilgan va tahlil qilingan.

ПУТИ РАЦИОНАЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ НУРАТИНСКОГО ХРЕБТА

Бекзод Хакимов

Джизакский государственный педагогический университет

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: хребет Нурота, ручьи Ухум и Маджурум, пик Хаётбоши, природные ресурсы, деградация, ручей Гордара.

Аннотация: В данной статье изучены и проанализированы природные ресурсы Нуратинского хребта и возможности их использования, а также вопросы охраны.

KIRISH

Nurota tizmasi sharqdan-g‘arbga tomon 264 km masofaga cho‘zilgan bo‘lib, eng baland nuqtasi Uxum va Majurum soylar boshlanadigan Hayotboshi cho‘qqisi (2169 m) hisoblanadi.

Hayotboshi cho‘qqisi tog‘ning markaziy qismida joylashgan. Tog‘ning markaziy qismi, sharqiy va g‘arbiy qismlarga nisbatan baland bo‘lib, o‘rtacha balandligi 1750 m ni tashkil qiladi. Bu qismda Hayotboshi (2169 m) cho‘qqisidan tashqari, Katta Fozilmon (2134 m), Qarchig‘ay (2105 m) kabi cho‘qqilar ham bor. G‘arbiy chekkasi Nurota shahri meridianida absolyut balandligi 400-450 m ga yetadigan tepaliklarga aylanadi va asta-sekin Qizilqum cho‘liga qo‘shilib ketadi. Sharqiy qanoti esa 650-700 m balandlikdagi past tog‘ (Yetimtog‘) ko‘rinishida Jizzax shahri hududiga qadar kirib boradi.

ASOSIY QISM

Nurota tizmasining janubi-sharqiy qismini Qo‘ytosh tog‘lari ish‘ol qilgan. Qo‘ytosh tog‘lari shimoli-g‘arbda Sovurbel dovonidan janubi-sharqda Sangzor daryosigacha boradi. Qo‘ytosh tog‘larining uzunligi 70 km, o‘rtacha balandligi 1260 m ni tashkil qiladi.

Sovurbel dovoni (1162 m) Forish tumanining markazi Bog‘don shaharini, Qarobdol va Garasha kabi aholi punktlari bilan bog‘lab turadi. Sovurbel dovoni bahor faslida tabiatining go‘zalligi bilan kishini o‘ziga maftun etadi. Sovurbel dovonining shimoliy yonbag‘iridagi buloq bo‘yida yo‘lovchilar dam olishi uchun choyxonalar ham qurilgan. Bu dovon orqali o‘tuvchilar ko‘p bo‘lgani (taxminan bir kunda 1000 kishidan ko‘proq) uchun hordiq chiqaradigan joylar va kempinglar barpo etilsa yaxshi samara beradi. Shuningdek, dovonda ba‘zi yillari qish qattiq kelganda, qalin qor bilan qoplanib, transport qatnovi to‘xtab qolish holatlari ham kuzatilgan.

Nurota tizmasi tog‘ va tog‘ oldi mintaqasi hozirgi vaqtda kuchli antropogen (inson xo‘jalik faoliyatining) ta‘sirini boshidan kechirmoqda va landshaftlar – chuqur degradatsiyalashgan (fransuzcha so‘z bo‘lib, degradation – tabiiy muhitning asta-sekin yomonlashuvi) jarayonini boshidan kechirmoqda. Bu holatning vujudga kelishida, tog‘ yonbag‘irlarini qoplab turgan tabiiy o‘simliklarning, eng avvalo o‘rmonlar va pistazorlarning yo‘q qilinishi muhim rol o‘ynagan. Arid iqlim sharoitiga hos bo‘lib va shimol tomonga ochiq joylashganligi va shuning uchun cho‘l zonasi Qizilqum cho‘lining bevosita ta‘sirida turganligi tufayli, Nurota tog‘larida o‘rmonlarning va Pistali tog‘ida pistazorlarni qayta tiklanishi amalda juda qiyindir.

Ma‘lumki, Nurota tizmasi tog‘ va tog‘ oldi hududlarida qadimdan sug‘orma dehqonchilik hamda koriz quduqlaridan foydalangan holda yerlarga ishlov berishi, tog‘ va tog‘ oldi hududlaridagi o‘simlik resurslaridan maqsadsiz foydalanish bilan birga olib borilgan. Bu esa o‘z navbatida Nurota tizmasi tog‘ va tog‘ oldi mintaqa landshaftlarining qiyofasida kuchli antropogen o‘zgarishlarga olib keldi.

Tarixiy manbalardan ma‘lumki, Nurota tizmasi tog‘ etaklari eng qadimgi madaniyat markazlaridan bo‘lib, ko‘p asrlik inson xo‘jaligi faoliyati maydonlaridan biri hisoblanadi. Dehqonchilik madaniyati paydo bo‘lganga qadar Sintabsoy, Uxumsoy, Majrumsoy va Andegen soylarning o‘rta va quyi qismlarining katta maydonlarini egallagan qayir va tog‘ oldi tekisliklarini

hamda birinchi va ikkinchi terrassalarning namlik yer yuzasiga yaqin joylarini qalin to‘qayzor o‘rmonlar qoplab yotar edi. Ular orasida turli xil hayvonlar yashagan. Sintabsoy, Uxumsoy, Majrumsoy va Andegen soylarning vodiylaridagi to‘qayzorlar katta maydonni egallagani va o‘tib bo‘lmaydigan darajada qalin bo‘lganligi bir qancha tarixiy ma‘lumotlardan ham ma‘lum.

Nurota tizmasining shimoliy yonbag‘ridagi Sintabsoy, Uxumsoy, Hayotboshi, Majrumsoy, Andegen va Asraf soylarning vodiylari aholi ko‘p yashaganligi sababli o‘rta va quyi oqimlari kuchli o‘zgargan. Lekin aholi deyarli yashamaydigan Go‘rdarasoy, Quruqqo‘lsoy va Kattasoylarda tabiati sof holda saqlangan. Kattasoy Eski Forish qishlog‘ini (Parosh) yuqori qismida joylashgan.

Birlashgan qishlog‘idan 2 km yuqorida Go‘rdara soyli boshlanadi. Go‘rdarasoy Bobojonsoy, Qo‘ziqsoy va Qizbibisoylaridan iborat. Go‘rdarasoydan 5 km yuqorida Bobojonsoyda balandligi 3 m bo‘lgan kichik sharshara oqib tushadi. Kichik sharasharadan keyin Bobojonsoy yuqoriga 3-4 km davom etadi. Qishloqdan kichik sharsharagacha 5,0-5,5 km masofani tashkil qiladi. Qo‘ziqsoyda balandligi 18 metrlik sharshara bor. Sharshara oldida Qizbibi ziyoratgohi joylashgan.

Go‘rdarani boshlanish joyi dengiz sathidan 600-700 m dan boshlanadi. Go‘rdaraning 2 ta asosiy soyi bo‘lgan Qo‘ziqsoy va Bobojon soylarni qo‘shilish joyida daradagi tog‘lar tashqi kuchlar (eol va oqar suv) ta‘sirida kuchli yemirilgan. Qo‘ziqsoyga Qizbibi soyli qo‘shiladi.

Go‘rdarasoyda 1950-60 yillargacha aholi yashagan. Keyin cho‘llarni o‘zlashtirish uchun qishloq aholisi ommaviy ko‘chirilgan. Hozirgi vaqtda Go‘rdarasoyning quyi qismida Birlashgan qishlog‘ida aholi yashaydi. Birlashgan qishlog‘ini oldingi nomi Sarimsoq qishloq (1960 yilga qadar) deb nomlangan. Bunday nomlanishiga sabab, Go‘rdara soyida oldinlari sarimsoq piyoz ko‘p bo‘lgan. Birlashgan qishlog‘ida 70 o‘rinli sanatoriya faoliyat yuritadi. Sanatoriya Gagarindagi sanatoriyaning filiali hisoblanadi.

Go‘rdarasoyda yuqoridan pastga tomon plastmasa quvurlarda suv olib kelingan. Quvurlarni ayrim-ayrim joylarida suvni chiqarib qo‘yishni yo‘lga qo‘yilgan. Bu o‘z navbatida yoz faslida kaklik va uning jo‘jalari uchun suvga bo‘lgan ehtiyojlarini xam qondirib beradi.

Go‘rdarasoyda egzotik relyef formalari ko‘p uchraydi. Go‘rdarasoydan keyin g‘arbda Quruqqo‘lsoy joylashgan. Quruqqo‘lsoydan keyin Kattasoy vodiysi keladi. Shimoliy Nurota tog‘larida joylashgan 3 ta soyni, boshqa soylardan farq tomoni, bu soy vodiylarda aholi umuman yashamaydi.

Kattasoydan keyin Asrafsoy joylashgan. Shimoliy Nurota tog‘larida ravoch o‘simligi areali Saforota qishlog‘ini pastgi qismida, Bolomon qishlog‘ining yuqori va pastki qismlarida Uchma qishlog‘ini yuqori qismida, Deriston, Abdulkarim va Ilonli qishloqlari atrofida o‘sadi. Katta yo‘l

bo'ylarida qo'ziquloq areallari keng maydonni egallaydi. Qiziq tomoni qo'ziquloq soy bo'ylarida juda kam uchraydi.

Balomon qishlog'ini ma'nosi, Bali degan onoxonni nomi bilan bog'liq. Balomonda katta buloq bor. Buloq tiniq bo'lib, tarkibida temir moddasiga boy. Balomon qishlog'idan sharqda joylashgan kichik Ko'shkak qishlog'i (8 ta oila yashaydi) da yer osti suvlari 2-3 m dan chiqadi. Yoz fasliga borib, yer osti suvlari sathi pastga tushadi. Ichimlik suvi sifatida quduqlardan 7-8 m dan suv olinadi.

Safarota va Balomon qishloqlarida tut daraxti ko'p tarqalgan. Shu boisdan, bu qishloqlar Forish tumanini pillasini asosiy qismini beradi. Balomonda toklar kamayib ketdi. Sababi, ushbu qishloqlar atrofida yer osti suvlari sathi ko'tarilib ketgan. Bu hududlar oldin mashhur Forish jamoa xo'jalikligi tarkibiga kiritilgan.

Forish jamoa xo'jalikligi tuman markazidan Uxum qishlog'igacha bo'lgan katta hududlarni egallagan. Jamoa xo'jalikligi asosan qorako'lchilik sohasiga ixtisoslashgan edi. Qorako'l qo'ylarni Nurota tizmasining shimoliy yonbag'irida uzoq yillar davomida boqilishi natijasida, o'simlik turlarining kamayishi va degradatsiyasi kuzatilmoqda. Forish tumanidagi oldinlari qorako'lchilikka ixtisoslashgan asosiy jamoa xo'jaliklardan yana biri Qizilqum jamoa xo'jalikligi bo'lgan.

Forish-Hurota katta yo'lidan Qizilqum jamoa xo'jalikligigacha 18 km ni tashkil qiladi. So'ngi yillarda Qizilqum jamoa xo'jalikligi qorako'lchilik tarmog'i o'z mavqeyini yo'qotgan. Qorako'lchilik o'rnini sug'orma dehqonchilik egallab bormoqda. Boisi, Qizilqum jamoa xo'jalikligida yer osti suvlari 18-20 m dan chiqadi va suvlardan dehqonchilikda unumli foydalanmoqda. Qizilqum jamoa xo'jalikligida artezan quduq suvlari chiqarilgandan keyin salkam 40 ming gektar yer o'zlashtirildi. Afsuslanarli tomoni shundaki, o'zlashtirilgan bu yerlarning meliorativ holati yildan-yilga yomonlash bormoqda.

Shuni aytish kerakki, Nurota tog'laridagi tabiiy jarayonlarning keskinlashishi va ayniqsa, suvlarining kamayib ketishida inson xo'jalik faoliyatining ta'siri ham katta. Olimlarning tasdiqlashicha qadimgi vaqtda Nurota tog'lari qalin archa o'rmonlari va butazorlar bilan qoplangan bo'lgan. Bu haqida ayrim joylarda (masalan, Oqtog' massivida: Toshpo'lat Jumaboev, Arzimurod Raxmatullaev, 1964) saqlanib qolgan archazorlar guvoh beradi. Keyinchalik o'rmon qoplami va butazorlar inson tomonidan yo'q qilib yuborilgan.

Nurota tizmasi tog'lari va uning atroflarining gidrografiyasi nihoyatda notekis tarqalgan. Tog' oldi rayonlarida doimiy oquvchi suv to'rlari yo'q. Uncha uzun cho'zilmagan Nurota tog'lari va quruq iqlimli bu hududda suv xarajati uncha uncha katta bo'lmagan kichik daryolar hamda soylarning hosil bo'lishiga imkon bergan. Nurota tog'larining janubiy yonbag'rlarida daryo to'rlari shimoliy yonbag'riga nisbatan ko'proq. Chunki, yuqorida aytib o'tilganidek, tog'

tizmasining shimoliy yonbag'ri qisqa va tik, janubiy yonbag'ri esa ancha yotiq va keng. Shuning uchun ham bu yerda daryo to'rlari ancha rivojlangan.

Hozirgi vaqtda Nurota tizmasi va tekisliklari o'rtasida bir butunlik tizimni buzilishi yuz bermoqda. Mintaqani landshaf komponentlari bo'lgan, yer osti suvlarning harakati, o'simlik balandlik bo'yicha tarqalishi, hayvonlar migratsiyasi, havo namligidagi va shamollar yunalishidagi o'zgarishlarda kuzatish mumkin. Natijada, nafaqat tekisliklarda, tog' yonbag'irlarida ham cho'llanish jarayonlari yuz bermoqda. Buning oqibatida mintaqada ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muammolar vujudga kelayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu muammolarni quyida alohida o'rganib, tahlil qilib chiqiladi.

Nurota tizmasi va uning shimoliy yonbag'rlaridagi tog' oldi tekisliklaridagi katta va kichik qishloqlarda hamda ularni o'rab turgan Forish cho'llarida eng katta muammolardan biri – so'zsiz cho'lashish muammosidir. Nurota tog'lari O'zbekistonning arid mintaqasidagi tog'laridan bo'lib, shimoldan va shimoli-g'arbdan Qizilqum cho'lining "issiq nafasi" sezilib turadi.

Nurota tog'larida cho'llanish jarayonining borishida antropagen omillar ham asosiy rol o'ynaydi. Antropagen omillar ta'sirda uzoq yillar davomida Nurota tizmasi va tog' oldi tekisliklari landshaft va uning komponentlarning o'zgarganligini ko'rish mumkin. Jumladan, antropagen omillar ta'sirida Oqtog'da archa, Nurota tog'ida siyrak butalar, Qo'shrabotda yong'oq, yovvoyi pista, ayrim soylarda yovvoyilashgan tok, olmalarni siyrak holda uchrashi, bu tog'lar qadimda qalin o'rmonlar bilan qoplanganligini ko'rsatuvchi dalil bo'lib xizmat qiladi. Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Nurota tizmasida o'simliklar yillar davomida degradatsiyaga uchrab bormoqda.

Nurota tizmasi va uning tog' oldi tekisliklaridagi antropagen omillar ta'siridagi so'ngi 100 yillikdagi o'zgarishlarni fond materiallar, ilmiy adabiyotlar, mahalliy aholining ma'lumotlari va stasionar kuzatishlar natijasida to'plandi va tahlil qilindi. To'plangan ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, Qizilqum cho'li va Forish cho'llarining maydonlari ham Nurota tizmasi tomon kengayib bormoqda. Nurota tizmasidagi o'zgarishlarni quyidagi ma'lumotlar asosida ham ko'rish mumkin.

Professor Ziyoviddin Akromov (1974) fikricha, Nurota tog'larining g'arbiy qismida yaylovlar hosildorligiga ko'ra chorva mollari soni ko'pdir. Bu fikr Arzimurod Raxmatullaev tomonidan Oqtog' janubiy yonbag'rida o'tkazgan tadqiqotlarida isbotlangan. Bu yerdagi yaylovlar hosildorligi 150 000 qo'y boqishga yetgani holda amalda 180 000 qo'y boqishadi. Bu hisobga odamlarning shaxsiy mollari kirmaydi. G'allaorol tumanining Sovruksoyida yashagan Qulmurod bobo so'ziga qaraganda 1941-1945 yillarda Qo'ytosh koni o'rnida qalin pistazor bo'lgan. Sovruk aholisi o'tin tayyorlash uchun bu yerga kelishganda, ikki kishi teparoq joyga chiqib yovvoyi cho'chqa va bo'rilarini qo'rqitish uchun ovoz berib turishgan. Sheriklari esa o'tin tayyorlashgan.

Tog'ning shimoliy yonbag'rida markaziy qismida bir qator qishloqlarda, aholi hozir ham kundalik ehtiyoji uchun shuvoqlarni ildizi bilan chopib olishlari kuzatiladi.

Nurota tizmasining janubiy yonbag'irida joylashgan G'allaorol, Payariq, Qo'shrabot tumanlarida bu holat nisbatan aktivroq bo'lib, bu hududlarda nurash jarayonining tezlashishiga sabab bo'lmoqda (Hoshimov, 2000).

Nurota tog'larida aholi sersuv soylarda va buloqlar ko'p chiqadigan tizmalar etaklarida joylashgan. Yirik soylarda tog'larning janubiy yonbag'rlarida To'sinsoy, Oqtepasoy, G'ujumsoy, Zarbandsoy, Andaksoy, Jizmonsoy, Kattasoy, Oltinsoy, Maydonsoy, Sharilloqsoy, Sarmishsoy. Shimoliy yonbag'rlarida Uxumsoy, Sintabsoy, Chuyasoylarda aholi juda zich yashaydi. Umuman Nurota tog'larida 90 % aholi tog' va tog' oldi tekisligi o'rtasida joylashgan. Aholining 8-9 % i tog' o'rtasidagi botiqlarda yashaydi va quduq suvlaridan foydalanadi. Shuningdek, 1 % ga yaqini aholi bevosita tog' yonbag'rlarida va yaylov deb ataladigan tog' tepalarida yashaydi (A.Raxmatullaev, 2000).

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Nurota tog'larida aholi soni yildan-yilga oshib, qishloqlar yiriklashib bormoqda. Tog'lar oralig'idagi botiqlarda artezian quduqlar ko'paymoqda va bir qism aholi shu quduqlar atrofiga ko'chib ketmoqda. Aholining ko'payishi bilan xususiy mollar soni ham oshmoqda. Bu esa so'ssiz Nurota tog'lari tabiatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tog' oldi qishloqlarga yaqin yerlarda mollar soni uzluksiz boqilishidan tabiiy o't qoplami kuchli o'zgargan. Ayniqsa, yirik qishloqlar yaqinida radiusi 1000-1500 metrlarga qadar juda siyrak butalargina qolgan. Son-sanoqsiz mollar izlari o't bilan qoplangan joylarda 2-3 barobar katta joyni egallaydi. Radiusi 2000-4000 metr masofada ham mollar yurishidan hosil bo'lgan yalong'och yo'llar turi 20-30 % maydonni egallaydi. Qishloqlarda 3000-4000 metr masofada yo'llar ancha kam va ular umumiy maydonning 10-15 % ini tashkil etadi.

Ana shunga o'xshash qo'y qo'ralari atroflarida asosan yalang'ochlanib qolgan joylar bir necha gektar joyni tashkil etadi. Hududi shuningdek, yirik qishloqlar atroflarida har doimo mol haydaladigan tomonlarda yalang'ochlangan yerlar uzun oq yo'lak ko'rinishida qishloqlar turli tomonga cho'zilgan va ularning maydoni ham bir necha gektarni tashkil qiladi.

Tabiiy o'simliklar yo'qotilib yalong'ochlanib qolgan bu yerlarni "sahrolanish o'choqlari" deyish mumkin. Sababi, tabiiy o'simliklar yo'qotilib yalong'ochlanib qolgan kichik maydonlar 5-10 yillarda radiuslari kengayib, maydoni 2-3 barobarga ortib ketmoqda.

Sahrolanish o'choqlari har bir qishloqlar qo'y va mol qo'ralari, quduqlar, tog'-kon ishlab chiqarish atroflarida mavjud. Katta qishloq atroflarida bir necha ming qo'y va echkilar hamda yuzlab qoramollar boqiladi. Masalan, Nurota botig'ida Oqtog'ning shimoliy yonbag'ridagi Chuya qishlog'ida mingdan ortiq oila yashaydi. Har bir oilada o'rtacha 10 ta qo'y-echki va 2 ta dan qoramol bo'lsa ham, shu bitta qishloq atrofida ham har kuni 10000 qo'y-echki va 2000 qoramollar

boqiladi. Mollarning bir kun davomida qishloqdan uzoqlashish masofasi o'rtacha 3-4 km ni, yoz oylari esa 5-6 km, qish oylari 2-3 km ni tashkil qiladi. Demak, qishloq atroflarida yaylovlarga mol boqishning eng katta yuki 2-3 km radiusdagi joylarga to'g'ri keladi. Ana shu masofada qishloq yaqinlarida tabiiy o'tlar butunlay yo'qotilgan. Qishloqdan uzoqlashgan sari ta'sir kuchi ham kamayib boradi.

Tog' yonbag'rlarida me'yordan ortiq mol boqish o'simlik qoplamiga jiddiy ziyon yetkazmoqda. Sahrolanish tog' yonbag'rlarida tekislikka nisbatan tezroq boradi. Chunki, o'simlik qoplaminig siyraklashishi bilan yonbag'rlarda tuproqlarning yuvilishi kuchayadi. Bu esa o'z navbatida o'simliklarning yanada kamayishiga olib keladi va bahor faslida kuchli sellar oqishi uchun qulay hudud hisoblanib qoladi.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, Nurota tizmasida XIX asr oxirlarigacha tog' yonbag'rlarida daraxt va butalar qalin o'sgan. Hozirgi paytda bu tog'larning ikki joyida archa uchraydi. Birinchisi, Shimoliy Nurota tizmasidagi Nurota tog'-o'rmon qo'riqxonasida, ikkinchisi – Oqtog'ning markazida Sharilloqsoyning suv yig'gich havzasida. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Oqtog'dagi archalar Pomir-Oly tog' tizimining eng g'arbida saqlanib qolgan archalardir. Bu haqda to'liq ma'lumotlar A. Raxmatullaev va T. Jumaboevlarning (1972) maqolasida batafsil yozilgan. Bu archalarni muhofaza qilish va shu joyda qo'riqxonaga yoki zakaznik tashkil etish to'g'rsida ko'p yozilgan.

Nurota tizmasida archalarni saqlab qolish uchun qo'riqxonaga tashkil qilishning juda katta ilmiy va amaliy ahamiyati bor. Ilmiy ahamiyati shundaki, bu archalar bir vaqtlar Nurota tog'larida keng tarqalganligini bildiruvchi belgi hisoblanadi. Ikkinchi ilmiy ahamiyati – quruq va issiq iqlim sharoitida archalar o'sishi mumkinligini isbotlovchi dalildir. Archalar saqlanishining amaliy ahamiyati Nurota tog'larida o'rmon meliorativ ishlarini amalga oshirishda yordam beradi. Archadan tashqari Nurota tog'larida pista ham o'sadi, lekin bu qurg'oqchilikka chidamli daraxt ham qirilib ketdi.

XULOSA

Nurota tizmasi tog' va tog' oldi mintaqasida so'ngi yillarda aholining ko'payishi bilan xususiy mollar soni ham ko'payib bormoqda. Hatto bir necha ming qo'y-echkilari bor fermerlar ham mavjud. Ular ham o'z podalarini tog' yaylovlariga boqishadi. Mollarning uzluksiz boqilishidan tog'lardagi tabiiy o'tlar ham yildan-yilga kamayib, siyraklashib bormoqda. Daraxt butalarning kamayishi, o't qoplaminig siyraklashishidan tuproqlar yuvilishi kuchaymoqda. Bularning oqibatida buloq va soy suvlari kamayib qolgan.

Shuni aytib o'tish kerakki, O'rta Osiyo tabiiy o'lkasi tog'larining hozirgi o'rmon qoplami juda kam bo'lib, 2,5 % dan oshmaydi. Nurota tizmasining o'simlik qoplami esa – 0,75 % ni tashkil etadi. Nurota tizmasining yuqori qismi tog'larida (1700-1800 m balandda) asosan o'rmon hosil

qiluvchi daraxt bu – archa (Turkiston archasi, Zarafshon archasi va yoyilib o‘tuvchi Turkman archasi). Qalin archa o‘rmonlari juda kam uchrab, borish va chiqish qiyin joylarda qolgan. Past va o‘rta balandliklardagi tog‘larda esa bodom, do‘lana, na‘matak, uchqat, yovvoyi murut, tog‘ olchasi, klyon va boshqalar o‘sadi.

Organishlar natijasida, Nurota tismasi tog‘ va tog‘ oldi mintaqasida daraxt va butalar ham tog‘larning odam borishi qiyin bo‘lgan joylardagina saqlanib qolganligi ko‘rish mumkin. Nurota tismasida o‘rmonlarning juda siyrakligi va ko‘p joylarda umuman yo‘qligini geobotaniklar asrlar davomida kishilar tomonidan ularning ayovsiz qirqib kelganligi deb izohlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Alibekov L.A. Inson va tabiat. Samarqand, 2020.
2. Karimov, N. (2022). THE CENTRAL ASIAN RENAISSANCE OF THE IX-XII CENTURIES IN THE EYES OF FOREIGN RESEARCHERS. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(03), 28-45.
2. Fўдалов М.Р. Жиззах вилояти табиатини муҳофаза қилиш. Тошкент: “Фан ва технология”, 2014.
3. Nematov, O. (2018). Historical and religious monument of muhammad sharif (Mevlanagrekushoh). *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 7(9), 448-452.
4. Fўдалов М.Р., Мухамедов О.Л. Табиатни муҳофаза қилиш: муаммо ва ечимлар. Гулистон, 2021.
5. Mirkomil, G., Lapasova, U., & Umurzakova, G. (2020). Territorial Aspects Of The Organization Of Ecotourism Routes In The Turkestan Ridge. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 2(11), 87-90.
6. Рахматуллаев А.Р. Инсон фаолияти ва сахроланиш (Нурота тоғлари мисолида). Тўплам. Самарқанд, 2000.
7. GULSHODA, P. Y. (2021, April). ON THE ISSUE OF" LEADING VERB+ SUPPORTING VERB"(IN THE EXAMPLE OF THE AUXILIARY VERB 싶다 [SIPDA]). In *Oriental Conferences* (pp. 164-170).
8. Хошимов Ж.А. Нурота тоғларида чўлланиш жараёни. Тўплам. Самарқанд, 2000.